

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TURSUNOVA NILUFAR MO‘YDINOVNA

***PHASEOLUS VULGARIS* L. TURIGA MANSUB DURAGAYLARINING
FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA MORFOXO‘JALIK
BELGILARINING IRSIYLANISHI**

**03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi
03.00.09-Umumiy genetika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Tursunova Nilufar Mo‘yudinovna

Phaseolus vulgaris L. turiga mansub duragaylarining fiziologik xususiyatlari va morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanishi.....3

Турсунова Нилуфар Муйдиновна

Физиологические особенности и наследование морфохозяйственных признаков гибридов *Phaseolus vulgaris* L.....21

Tursunova Nilufar Muysinovna

Physiological characteristics and inheritance of morpho-economic traits of *Phaseolus vulgaris* L. hybrids.....40

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TURSUNOVA NILUFAR MO‘YDINOVNA

***PHASEOLUS VULGARIS L.* TURIGA MANSUB DURAGAYLARINING**
FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA MORFOXO‘JALIK
BELGILARINING IRSIYLANISHI

03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi
03.00.09-Umumiy genetika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1264 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.chdpu.uz.ilmiy-kengash) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Usmanov Rustam Maxmudovich

biologiya fanlari doktori, professor

Amanov Baxtiyar Xushbakovich

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matniyazova Hilola Xudaybergenovna

biologiya fanlari doktori, professor

Chorshanbiyev Nurali Esanpo‘latovich

biologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.B.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» _____soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpukengash@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712- 45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “__” _____ da tarqatildi.
(2025 yil “__” _____dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

V.B. Fayziyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi b.f.d.,
professor

A.Q. Bo‘ronov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
b.f.f.d., dotsent

H.A. Mo‘minov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda oddiy loviya (*Phaseolus vulgaris* L.) o'simligi oziq-ovqat ekini sifatida eng ko'p yetishtiriladigan madaniy o'simliklardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda, oqsil miqdori yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlarining istiqbolli navlari ular yetishtiriladigan hududlarning tabiiy iqlim sharoiti, jumladan tashqi muhitning stress omillariga moslashtirishda zamonaviy ilmiy usullardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Shundan kelib chiqqan holda oddiy loviya o'simligining geografik uzoq namunalarini chatishtirgan holda rekombinant shakllar olish asosida hosildor va oqsil miqdori yuqori yangi navlarini yaratishda, genetik, fiziologik va biokimyoviy belgi-xususiyatlarini tadqiq qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda oddiy loviyaning qimmatli-xo'jalik ko'rsatkichlarini yaxshilashda genetik ishlarni fiziologik usullar bilan bog'liq holda keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada oddiy loviyani irsiyati boyitilgan yangi duragaylarida muhim genetik, fiziologik va biokimyoviy belgi-xususiyatlarni aniqlash, jumladan qimmatli xo'jalik belgilarning irsiylanishi, o'zgaruvchanligi, poligenlar bilan nazorat qilinadigan miqdoriy belgilarning ko'rsatkichlarini oshirish, nasldan naslga berilishi va korrelyativ bog'liqligining genetik qonuniyatlarini aniqlash, klaster tahlili hamda rekombinant shakllardan keng ko'lamda foydalanish asosida yangi istiqbolli tizma va navlar yaratishga katta e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda ko'plab sohalar qatori qishloq xo'jaligida oddiy loviya yetishtirish, hosildorligini va oqsil miqdorini oshirish bo'yicha katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oddiy loviya o'simligining genetik, fiziologik va biokimyoviy tadqiqotlarni rivojlantirish, geografik uzoq namunalarini seleksiya jarayoniga tadbiiq qilish borasida muhim natijalarga erishildi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlariga moslashgan qishloq xo'jalik ekinlarining yangi seleksion navlarini yaratish va joriy etish¹" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda geografik uzoq namunalardan foydalanish, duragaylarning morfoxo'jalik, fiziologik va biokimyoviy belgi-xususiyatlarini hamda genetik potensialini tadqiq etish, belgilarning korrelyativ bog'liqligi va klaster tahlilini baholash asosida qimmatli boshlang'ich ashyolarni seleksiya jarayoniga jalb etish yangi oddiy loviya navlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106-son “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 iyundagi PQ-233-son “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustivor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda oddiy loviya (*Phaseolus vulgaris* L.) o‘simligining klassik va zamonaviy genetik, fiziologik va biokimyoviy belgi-xususiyatlari hamda seleksion yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, V.L.Iogansen (1903), Mulugeta Atnaf et al. (2013), Anna Cristina Lanna (2016), Antônia Maria De (2022), Ö. Bilira (2019), Lei Lei, Lanfen Wang, Shumin Wang (2020) tomonidan oddiy loviya genetikasi va marker-belgilar assotsiatsiyasi tahlilini qilish uchun polimorf SSR markerlaridan foydalangan holda tadqiqotlar olib borganlar; I.A.Russkix (2008), H.M.Ghobary (2010), I.A.Al-Ballat (2019) oddiy loviya o‘simligining morfoxo‘jalik belgilari o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqlikni tahlil qilganlar; Inayat Ur Rahman et al. (2014) ishida oddiy loviya namunalarida makro va mikroelementlar bo‘yicha so‘nggi ma‘lumotlar berilgan; Miguel A.Rosales et al. (2012) tadqiqotlarida fotosintez jarayonida loviya o‘simligida transpiratsiya jadalligi, suvdan foydalanish samaradorligi, nisbiy suv miqdori, prolin to‘planishi, glikolat oksidaza faolligi va ularning antioksidant reaksiyasi xususiyatlari tahlil qilingan; Ali Kahraman, Mustafa Onder (2014) oddiy loviya genotiplarining klaster tahlili natijasida ularni 3 guruhga ajratgan.

Respublikamizda oddiy loviya o‘simliklarini himoya qilish, bu ekin agrotexnikasi, o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi bo‘yicha qator tadqiqotchilar (J.Raxmonov, 2021; N.A.Ravshanova, G.U.Otayarova, 2023; A.T.Xolliyev, 2024) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. O‘simliklarning fazalararo davri davomiyligida navlarni sug‘orish tartiblari bo‘yicha farqlanish aniqlangan, oddiy loviya o‘simligida uchraydigan zararkunanda va kasallikka qarshi kurash chora-tadbirlarini samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub geografik uzoq navlar va ularning duragaylarida belgilarning irsiylanishi va o‘zgaruvchanlik xarakteri, fotosintetik pigmentlar miqdori, bargning suv saqlash xususiyati, barglardagi umumiy suv miqdori, transpiratsiya jadalligi, urug‘ tarkibidagi umumiy oqsil miqdori, erkin aminokislotalar miqdori, qimmatli xo‘jalik, fiziologik, biokimyoviy belgi-xususiyatlarining korrelyativ bog‘liqligi hamda klaster ko‘rsatkichlarini o‘rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.

Mazkur tadqiqot Chirchiq davlat pedagogika universitetining “Evolyutsiya jarayonida vujudga kelgan bioxilma-xilliklarni ilmiy ahamiyatini o‘rganish va genetik-seleksion tadqiqotlar uchun yangi manbalar yaratish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlarining rejaları bilan bog‘liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub geografik uzoq navlarida morfoxo‘jalik, fiziologik, biokimyoviy belgilarning namoyon bo‘lishi, bu belgilarning F₁-F₂ duragaylarida irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi asosida irsiyati boyitilgan yangi genotiplar ajratib olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oddiy loviya navlarida morfobiologik va qimmatli xo‘jalik belgilarini qiyosiy tahlili;

ota-onalik shakllari va F₁-F₂ duragaylarida ayrim fiziologik ko‘rsatkichlar, barglarning umumiy suv miqdori, suv saqlash xususiyati, transpiratsiya jadalligi ta‘sirini hamda fotosintetik pigmentlar miqdorini aniqlash;

geografik uzoq navlarning duragaylarida morfoxo‘jalik, fiziologik va biokimyoviy belgilarning irsiylanishi hamda o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini gibridologik tahlil qilish;

ota-onalik shakllari va F₁-F₂ duragaylarining urug‘lari tarkibidagi umumiy oqsil va erkin aminokislotalar miqdorini aniqlash;

ota-onalik shakllari va F₁-F₂ duragaylarida morfoxo‘jalik belgilarini korrelyativ bog‘liqligi va klaster tahlilini aniqlash;

oddiy loviyaning yangi irsiy boyitilgan va sifat ko‘rsatkichlari yuqori genotiplarini ajratib olish va ularni amaliy seleksiya jarayoniga tavsiya etish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub geografik uzoq bo‘lgan mahalliy Ravot (O‘zbekiston), xorijiy Solnishko (Rossiya), Fasol belaya (Rossiya), Beybi Lima (Peru), Kalipso Krasnaya (Xitoy), Vir (Turkiya) navlaridan va ularning F₁-F₂ duragaylari olingan.

Tadqiqotning predmeti *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub geografik uzoq navlarda morfoxo‘jalik, fiziologik va biokimyoviy belgilarni namoyon bo‘lishini va F₁-F₂ duragaylarida bu belgilarning irsiylanishi, o‘zgaruvchanligini va korrelyatsiyasini, klasterlik munosabatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada o‘simliklar umumiy genetikasi, fiziologiyasi va biokimyosining zamonaviy va klassik usullari, duragaylash, gibridologik tahlil, qiyosiy morfologiya, fenologik kuzatuvlar hamda genetik-statistika tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bora odiy loviya navlarining va F₁ duragaylarida barglardagi xlorofill “a”, ”b” va karotinoid miqdori, umumiy oqsil miqdori bo‘yicha ijobiy va salbiy oraliq hamda o‘ta dominantlik holatlarida irsiylanishi, bunda dominantlik koeffitsienti (hp) ota-ona genotiplariga bog‘liqligi aniqlangan;

navlar va F₁-F₂ duragaylari urug‘i tarkibidagi umumiy oqsil va erkin aminokislotalar miqdori turlicha ekanligi hamda ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha 3 ta klaster guruhga ajralishi aniqlangan;

ota-onalik shakllari va F₁-F₂ duragaylarida kuchli ijobiy bog‘liqlik bir tup o‘simlikdagi urug‘ vazni bilan 1000 dona urug‘ vazni o‘rtasida (r=0,86), bargdagi umumiy xlorofill miqdori va umumiy suv miqdori o‘rtasida (r=0,79; r=0,85), umumiy xlorofill miqdori va xlorofill “a” o‘rtasida (r=0,93), urug‘ tarkibidagi umumiy oqsil miqdori va transpiratsiya jadalligi o‘rtasida (r=0,81) mavjudligi isbotlangan;

Phaseolus vulgaris L. turiga mansub geografik uzoq navlar va F₁ o‘simliklarida umumiy oqsil miqdori, 1000 dona urug‘ vazni, bitta o‘simlikdagi umumiy dukkaklar soni, bitta dukkakdagi urug‘lar soni, bir tup o‘simlikdagi urug‘ soni va vazni belgilari ijobiy va salbiy oraliq hamda o‘ta dominantlik holatlarda irsiylanishi, F₂ avlodida keng ko‘lamli transgressiv o‘zgaruvchanlik yuzaga kelishi aniqlangan, rekombinant shakllar genetik-seleksion jarayonda boshlang‘ich manba sifatida foydalanish mumkin ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oddiy loviya navlarining F₁ avlodidan o‘simlik mahsuldorligi bo‘yicha yuqori geterozis samarasiga ega kombinatsiyalar ajratib olingan;

F₂ Solnishko x Beybi Lima, F₂ Solnishko x Ravot, F₂ Ravot x Beybi Lima duragay kombinatsiyalaridan bitta o‘simlikdagi umumiy dukkaklar soni bo‘yicha hosildorlik seleksiyasi uchun qimmatli boshlang‘ich ashyolar ajratib olingan;

morfoxo‘jalik, fiziologik va biokimyoviy belgi-xususiyatlari korrelyativ bog‘langan F₂ duragaylar oddiy loviya amaliy seleksiya jarayoniga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarda dala tajribalarining metodik jihatdan to‘g‘ri o‘tkazilganligi va olingan natijalarning nazariy ma‘lumotlar bilan tasdiqlanganligi, olingan ma‘lumotlarning zamonaviy statistik tahlili qilingani, xulosalarning ilmiy va amaliy asoslanganligi, olingan natijalarning qiyosiy tahlili, ilmiy tadqiqot natijalarining respublika, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamasi, yetakchi mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub geografik uzoq navlarni chatishtirish asosida olingan F₁-F₂ duragaylarida morfoxo‘jalik belgilarni irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi, fiziologik, biokimyoviy ko‘rsatkichlari ya‘ni, bargdagi umumiy suv miqdori, suv saqlash xususiyati, transpiratsiya jadalligi, bargdagi xlorofill “a”, “b” va karotinoid miqdori, urug‘ tarkibidagi umumiy oqsil, erkin aminokislotalar miqdori aniqlangani, bu belgilarning korrelyativ bog‘liqligi hamda klaster tahlili bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub geografik uzoq navlar genotipini noyob belgilar bilan boyitish mumkinligi tasdiqlanganligi, oddiy loviya seleksiyasi uchun genetik jihatdan boyitilgan rekombinant shakllar ajratib olinganligi va seleksion potentsiali yuqori bo‘lgan duragaylardan dastlabki manba sifatida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub duragaylarining fiziologik xususiyatlari va morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oddiy loviyani morfoxo‘jalik, fiziologik, biokimyoviy ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan navlari va F_2 duragaylaridan ajratib olingan rekombinant shakllari O‘zbekistonni turli mintaqalarida qurg‘oqchilikka chidamliligini baholashda foydalanilgan (Qurg‘oqchil mintaqalarda qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari xalqaro markazi (ICARDA) ning 2024 yil 09 sentabrdagi 1616-son ma‘lumotnomasi). Natijada, odiy loviya navlari va F_2 duragaylaridan ajratib olingan rekombinant shakllarining hosildor, ertapishar va qurg‘oqchilikka chidamli namunalardan kelgusida seleksion maqsadlarda qo‘llash imkonini bergan;

oddiy loviyani xorijiy namunalari va F_1 - F_2 duragaylari Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 12 noyabrdagi 05/06-02-974-son ma‘lumotnomasi). Natijada, genofondni boyitish, saqlash va ulardan kelgusida genetika, seleksiya sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish maqsadida fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari musassamlashgan namunalarni birlamchi manba sifatida foydalanish va elektron bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish bo‘yicha foydalanish imkonini bergan;

Phaseolus vulgaris L. turiga mansub geografik uzoq navlarni chatishtirish asosida olingan irsiy jihatdan boyitilgan F_2 duragaylari Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti kolleksiyasiga taqdim etilgan (O‘zbekiston respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 12 noyabrdagi 05/06-02-974-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu yuqori ko‘rsatkichli F_2 duragay rekombinant shakllari institutning genofondini boyitish bilan bir qatorda, Respublikamiz “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda boshlang‘ich ashyo sifatida foydalanishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilishi va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Fabaceae* oilasiga mansub turlarining morfobiologik, xo‘jalik belgilarini irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublika, MDH va xorijiy davlatlar olimlarining ilmiy izlanishlari, xususan, oddiy loviya o‘simligini fiziologik, biokimyoviy, morfoxo‘jalik belgi va xususiyatlarining irsiylanishi hamda o‘zgaruvchanligini namoyon bo‘lishi, korrelyatsion bog‘liqlik va klaster tahlilini baholash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Tadqiqotni o‘tkazish sharoiti, ob‘ekti va uslublari” deb nomlangan ikkinchi bobida foydalanilgan tadqiqot joyi, sharoitlari, ob‘ekti va uslublari batafsil bayon etilgan. Izlanishlarda duragaylash va gibridologik tahlil, genetik-statistik tahlillar, F₁ avlod duragaylarida belgilar bo‘yicha dominantlik darajasi (hp), nasldan naslga berilishi (h^2) darajalari aniqlangan. Bargdagi suv almashinuvining muhim fiziologik ko‘rsatkichlaridan umumiy suv miqdori, suv saqlash xususiyati, transpiratsiya jadalligi kabi usullaridan foydalanilgan. Bundan tashqari, xlorofill “a”, “b” va karotinoidlar miqdori aniqlangan. Urug‘ tarkibidagi umumiy oqsil miqdori, erkin aminokislotalar tarkibi mass-spektrometriya usullari yordamida tahlil qilingan.

Oddiy loviya navlari, F₁-F₂ o‘simliklarida belgilarning korrelyativ bog‘liqligi aniqlangan. Shuningdek, klasterli tahlil usulidan foydalanilgan.

Amaliy tadqiqotlardan olingan natijalarga B.A.Dospexov (1985) bo‘yicha statistik qayta ishlangan.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi “*Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub boshlang‘ich manbalari, F₁-F₂ duragaylarini fiziologik va biokimyoviy belgi-xususiyatlarini irsiylanishi hamda o‘zgaruvchanligi” deb nomlangan bo‘lib, fiziologik va biokimyoviy belgi xususiyatlarni o‘rganishda olingan natijalar bayon etilgan.

Bobning birinchi bo‘limida boshlang‘ich manbalar va F₁-F₂ duragaylari barglarida umumiy suv miqdori ko‘rsatkichlari bo‘yicha boshlang‘ich manbalarda g‘unchalash fazasida o‘rtacha 78,3-84,5%, gullash fazasida o‘rtacha 81,0-85,8%, F₁ duragay o‘simliklarida eng yuqori ko‘rsatkichlar F₁ Kalipso krasnaya x Beybi Lima, F₁ Beybi Lima x Vir, F₁ Solnishko x Kalipso krasnaya va Ravot x Kalipso krasnaya kombinatsiyalarida (mos ravishda 85,1±1,0%, 84,9±0,7%, 83,5±0,5% va 83,0±0,5%), eng past ko‘rsatkich esa F₁ Kalipso krasnaya x Solnishko kombinatsiyasida qayd etilib, belgi ko‘rsatkichi 77,3±1,0% ni tashkil etdi. F₂ Beybi Lima x Kalipso kombinatsiyasi uchchala faza bo‘yicha boshqa kombinatsiyalardan yuqori ko‘rsatkichni (g‘unchalash-81,9%, gullash-87,9%, dukkaklash-79,2%) namoyon etdi.

Bobning ikkinchi bo‘limida suv saqlash xususiyati bo‘yicha olingan natijalar qayd etilgan. F₁ duragay o‘simliklarida barglarning suv saqlash xususiyati g‘unchalash, gullash va dukkaklash fazalarida tahlil qilindi. F₁ duragaylarida barglarni suv saqlash xususiyati bo‘yicha o‘rganilgan uchta fazada eng yuqori ko‘rsatkich F₁ Beybi Lima x Kalipso krasnaya kombinatsiyasida (mos ravishda g‘unchalash- 43,2±4,4%, gullash- 44,1±2,9% va dukkaklash- 50,6±4,1%), F₂ duragaylarini barglarni suv saqlash xususiyati F₂ Solnishko x Ravot

kombinatsiyasida boshqa duragaylarga nisbatan vaqt birligida suvni ko'proq ($53,3\pm 2,6\%$) bug'latdi.

Tadqiqotlarimizda boshlang'ich manbalar va F_1 - F_2 duragaylari barglarida transpiratsiya jadalligi o'rganildi. *Phaseolus vulgaris* navlarida g'unchalash-gullash-dukkaklash fazalarida barglarda transpiratsiya jadalligi belgisi bo'yicha yaqqol ustunlik Beybi Lima navida $210,2\pm 4,6$ mg/g.s., $247,1\pm 8,7$ mg/g.s., $231,9\pm 1,9$ mg/g.s. ni tashkil etdi. F_1 duragaylarida transpiratsiya jadalligi bo'yicha uchta fazada eng yuqori ko'rsatkich F_1 Beybi Lima x Vir kombinatsiyasida (mos ravishda g'unchalash- $362,2\pm 4,7\%$, gullash- $378,6\pm 4,4\%$ va dukkaklash- $313,9\pm 2,1\%$) kuzatildi. F_2 Ravot x Beybi Lima kombinatsiyasida $264,9\pm 5,1\%$, gullash-dukkaklash fazalarida F_2 Beybi Lima x Kalipso krasnaya kombinatsiyasida (mos ravishda gullash- $329,2\pm 4,6\%$ va dukkaklash- $263,7\pm 3,8\%$) aniqlandi.

Tadqiqotlarimiz davomida *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub navlar va ularni chatishtirish asosida olingan F_1 - F_2 o'simliklarida xlorofill "a", xlorofill "b", karotinoidlar va umumiy pigmentlar miqdori tahlil qilindi. Xlorofill "a", Beybi Lima navida yuqori ko'rsatkich ($2,09\pm 0,5$ mg/g), Kalipso krasnaya navida gullash fazasida ($2,39\pm 0,5$ mg/g), dukkaklash fazasida ($3,46\pm 1,2$ mg/g) kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Solnishko navida g'unchalash- $1,64\pm 0,3$ mg/g, gullash- $1,44\pm 0,03$ mg/g, dukkaklash- $1,44\pm 0,03$ mg/g fazalarida qayd etildi. Yuqori ko'rsatkich F_1 duragaylarida Solnishko x Ravot, F_1 Solnishko x Kalipso krasnaya va F_1 Kalipso krasnaya x Solnishko kombinatsiyalarida (mos ravishda $1,82\pm 0,09$ mg/g, $18,0\pm 0,4$ mg/g, $1,80\pm 0,4$ mg/g), F_2 Beybi Lima x Kalipso kombinatsiyasi ($1,92\pm 0,8$ mg/g, $2,10\pm 1,3$ mg/g) qayd etildi.

Boshlang'ich manbalarda xlorofill "b" miqdori spektrofotometrik tahlil qilinganda, g'unchalash va gullash fazalarida eng yuqori ko'rsatkichlar Beybi Lima navida ($0,90\pm 0,3$ mg/g, $0,96\pm 0,3$ mg/g), dukkaklash fazasida Vir navida ($0,15\pm 0,5$ mg/g) qayd etilgan bo'lsa, g'unchalash fazasida Solnishko navida ($0,63\pm 0,2$ mg/g), gullash fazasida ($0,57\pm 0,2$ mg/g), dukkaklash fazasida ($0,56\pm 0,2$ mg/g) xlorofill "b" miqdori bo'yicha past ko'rsatkich aniqlandi hamda qolgan boshlang'ich manbalarda analogik holat qayd etilib, bir-biridan katta farqlar kuzatilmadi. Gullash fazasida F_1 Kalipso krasnaya x Solnishko kombinatsiyasida salbiy dominantlik darajasi $hp=-4,1$ holatda irsiylanishi kuzatildi. Bundan tashqari, dukkaklash fazasida F_1 Ravot x Beybi Lima kombinatsiyasida oraliq irsiylanish ko'rsatkichlari mos ravishda $hp=0,3$ holatda irsiylanish kuzatildi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, oddiy loviya navlarida umumiy xlorofill miqdori dastlabki 3 ta fazasida turlicha ko'rsatkichlar qayd etildi. Masalan, Beybi Lima navida yuqori ko'rsatkich ($2,99\pm 0,8$ mg/g), Kalipso krasnaya navini gullash fazasida ($3,31\pm 0,8$ mg/g), Vir navini dukkaklash fazasida ($5,04\pm 0,7$ mg/g) kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Solnishko navini g'unchalash- $2,27\pm 0,5$ mg/g, gullash- $2,24\pm 0,4$ mg/g fazalarida, Beybi Lima navini dukkaklash- $1,91\pm 0,3$ mg/g fazalarida aniqlandi.

Phaseolus vulgaris L. turiga mansub navlarda karotinoidlar miqdori belgisi tahlil qilinganda, o'simliklarni g'unchalash va gullash fazalarida ushbu belgi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Ravot navida $0,60\pm 0,3$ mg/g, $0,84\pm 0,2$ mg/g,

Belaya fasol navida past ko'rsatkich $0,47 \pm 0,1$ mg/g aniqlangan bo'lsa, gullash fazasida faqatgina Solnishko navida eng past $0,37 \pm 0,1$ mg/g ko'rsatkich aniqlandi. Oddiy loviya o'simligini dukkaklash fazasida faqatgiga bitta Vir navida yuqori $0,73 \pm 0,1$ mg/g ko'rsatkich, qolgan namunalarda karotinoidlar miqdori belgisi bo'yicha analogik ko'rsatkichlar aniqlandi.

Tahlil qilingan F₂ duragaylarini o'simlik barglaridagi karotinoidlar miqdori g'unchalash-gullash-dukkaklash fazalarida tahlil qilinganda, g'unchalash va dukkaklash fazalarida F₂ Ravot x Kalipso krasnaya kombinatsiyasida boshqa duragaylarga nisbatan yuqori ko'rsatkich ($0,39 \pm 0,2$ mg/g; $0,40 \pm 0,2$ mg/g) aniqlandi hamda g'unchalash fazasida past ko'rsatkich F₂ Ravot x Kalipso krasnaya kombinatsiyasida ($0,29 \pm 0,2$ mg/g) kuzatildi. Duragay o'simliklarni gullash fazasida karotinoidlar miqdori bo'yicha yuqori ko'rsatkich F₂ Solnishko x Ravot kombinatsiyasida ($0,40 \pm 0,2$ mg/g) aniqlangan bo'lsa, gullash va dukkaklash fazalarida Ravot x Beybi Lima kombinatsiyasida ($0,27 \pm 0,2$ mg/g; $0,29 \pm 0,1$ mg/g) kuzatildi.

Bobning beshinchi bo'limida urug' tarkibidagi umumiy oqsil miqdori qayd etilgan bo'lib, oddiy loviya navlarida urug' tarkibidagi umumiy oqsil miqdori o'rtacha 20,2-22,6% ni tashkil etdi. Umumiy oqsil miqdori bo'yicha F₁ Beybi Lima x Kalipso krasnaya resiprok kombinatsiyasida ($h_p=5,0$; $h_p=6,0$) ijobiy o'ta dominant holatda, F₁ Ravot x Krasnaya kalipso kombinatsiyasida oraliq irsiylanish ko'rsatkichi mos ravishda $h_p=0,6$ holatda irsiylanish kuzatildi. F₂ o'simliklarida umumiy oqsil miqdori ko'rsatkichi o'rtacha 21,1-23,2% ni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. Boshlang'ich manbalar, F₁-F₂ o'simliklar urug'ida umumiy oqsil miqdori (%).


Urug' tarkibidagi erkin aminokislotalar miqdori bob yakunida tahlil etildi. O'rganilgan 6 ta loviya navlarida Belaya fasol navida boshqa navlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni, ya'ni, asparagin kislota ($1,047977$ mg/g), glutamin ($8,479748$ mg/g), trionin ($1,399479$ mg/g), alanin ($7,96408$ mg/g), metionin ($1,0077$ mg/g), gistidin ($6,385998$ mg/g), izoleysin ($0,301465$ mg/g), leysin ($0,664844$ mg/g), triptofan ($0,669927$ mg/g), fenilalanin ($0,456917$ mg/g), lizin

(0,584369 mg/g), Kalipso navida asparagin (1,787275 mg/g), arginin (0,941709 mg/g), prolin (1,240512 mg/g), valin (0,801459), Vir navida glutamin kislota (2,561475 mg/g) va tirozin (2,021204 mg/g), Ravot navida serin (1,294962 mg/g), glitsin (0,760925 mg/g) va sistein (2,08306 mg/g) kabi erkin aminokislotlar miqdori yuqori ekanligi aniqlandi.


Dissertatsiyaning **“Phaseolus vulgaris L. turiga mansub navlar va F₁-F₂ o‘simliklarida morfobiologik va qimmatli xo‘jalik belgilarining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida oddiy loviya navlarining chatishishi, duragay dukkak tugilishi, F₁-F₂ o‘simliklarida o‘suv davri, dukkaklar soni, dukkakdagi urug‘lar soni, 1000 dona urug‘ vazni, poya uzunligi kabi belgilarining F₁-F₂ o‘simliklarida irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi bayon etilgan.

Bobning birinchi bo‘limida navlarni chatishishi, duragay dukkak tugilishi va dukkaklarda to‘liq urug‘lar foizi tahlil natijalari keltirilgan. *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub geografik uzoq genotiplarni bilan chatishishi, duragay dukkaklar tugilishi esa 20,0-70,0 %, duragay dukkaklarda to‘liq urug‘lar tugilishi 38,8-93,7 % ni tashkil etganligi aniqlandi.

Duragaylash natijalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik chatishtirish kombinatsiyalarida mahalliy Ravot navi onalik o‘simligi sifatida ishlatilganda, dukkak tugilish ko‘rsatkichlari qolgan kombinatsiyalarga nisbatan yaxshi (58,3-70,0 %), dukkakdagi to‘liq urug‘lar tugilish foizi esa yuqorili bo‘lishi (82,8-93,7 %) aniqlandi. Madaniy nav Ravot x Solnishko kombinatsiyasida dukkakdagi to‘liq urug‘lar tugilishi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich 93,7 % ni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. F₀ duragay dukkaklarning va dukkaklardagi to‘liq urug‘lar tugilishining foizi.



3-rasm. Boshlang‘ich manbalar va F₁ o‘simliklar dukkaklarida to‘liq urug‘lar tugilish foizi

Bobning ikkinchi bo‘limida F₁ o‘simliklarida dukkaklar soni va dukkakda to‘liq urug‘lar tugilishi tahlil qilingan bo‘lib, geografik uzoq genotiplarda dukkaklar soni 10-20 tani tashkil etishi, bitta dukkakda tugilgan to‘liq urug‘lar foizining tahlili natijalari oddiy loviyani xorijiy va mahalliy nav va namunalarida asosan 61,6-92,7%, ushbu belgi bo‘yicha Beybi Lima navida eng yuqori 92,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Belaya fasol navida eng past ko‘rsatkich 61,7 % ekanligi

aniqlandi. F_1 o'simliklarida bir tup o'simlikdagi dukkaklar soni 8-17 donani, bitta dukkakdagi to'liq urug'lar tugilishi esa 87,1-96,0 % ni tashkil etdi (3-rasm).

F_1 - F_2 o'simliklarida o'suv davrining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi o'rganilgan uchinchi bo'limda ota-ona shakllarda o'suv davri 65,0-82,0 kun, duragay kombinatsiyalarda o'rtacha 64,0-73,8 kunni tashkil etdi. F_1 Ravot x Kalipso krasnaya kombinatsiyasida o'suv davri davomiyligi o'rtacha 64,0 kun bo'lib, tezpisharlik belgisining o'ta dominantlik holda ($hp=5,8$) irsiylanish kuzatildi. F_2 o'simliklarida keng transgressiv o'zgaruvchanlik kuzatilib, o'rganilgan 205 ta o'simliklar orasidan tezpisharlik belgisi 56-60 kun bo'lgan 6 ta hamda tezpisharlik belgisi 61-65 kunlik 122 ta rekombinant shakllar olishga erishildi. O'suv davri belgisining nasldan naslga berilish koeffitsienti $h^2=0,58$ dan $h^2=0,74$ ga teng bo'ldi, bu esa tahlil qilingan ushbu belgining 58-74 % i duragay shaklning genotipi, 26-42 % i esa tashqi muhit ta'sirida irsiylanishini ko'rsatadi.

Bobning to'rtinchi bo'limida F_1 - F_2 o'simliklarida asosiy poya uzunligining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi bayon etilgan. Boshlang'ich namunalarning asosiy biometrik belgilaridan biri bo'lgan asosiy poya uzunligi belgisi bo'yicha olingan Vir navi boshqa navlarga nisbatan uzun (86,9 sm), past bo'yli o'simliklar Belaya fasol (38,3 sm) navida kuzatilgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich F_1 Beybi Lima x Vir duragayida 88,3 sm, dominantlik koeffitsienti $hp=1,20$ ga teng bo'ldi. F_1 Ravot x Beybi Lima, F_1 Ravot x Kalipso krasnaya, F_1 Solnishko x Beybi Lima kombinatsiyalarida asosiy poya uzunligi 42,2 sm, 41,6 sm, 51,5 sm, o'zgaruvchanlik amplitudasi 38,0 - 47,0 sm, 30,0 - 45,0 sm, 48,0 - 56,0 sm gacha, dominantlik koeffitsienti esa $hp=-0,9$; $hp=-0,9$; $hp=-0,4$ ga teng ekanligi kuzatildi. O'rganilgan F_2 o'simliklarida asosiy poya uzunligi belgisining o'zgaruvchanlik ko'lamini 3-4-5 sinfni qamrab oldi. Jumladan, F_2 Beybi Lima x Kalipso krasnaya kombinatsiyasida (4 ta sinf) o'ng tomonli transgressiv o'zgaruvchanlik mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'rganilgan o'simliklarning eng ko'p foizi 71,0-80,0 sm ko'rsatkichli modal sinflarga (mos ravishda 55,0 %) to'g'ri keldi. F_2 o'simliklarida transgressiv o'zgaruvchanlik kuzatildi. Ushbu belgining nasldan naslga berilish koeffitsienti $h^2=79,92$ ga teng bo'ldi.

" F_1 - F_2 o'simliklarida bitta o'simlikdagi umumiy dukkaklar soni belgisining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi" nomli beshinchi bo'limda Vir va Belaya fasol navlarida boshqa navlarga qaraganda ko'p (26,3-27,4 dona), mahalliy Ravot navi esa biroz past ko'rsatkichga (21,3 dona) ega ekanligi aniqlandi, Kalipso krasnaya navida ushbu belgi bo'yicha past ko'rsatkich (18,6 dona) qayd etildi. F_1 o'simliklarida o'rganilayotgan belgi bo'yicha boshlang'ich manbalarga nisbatan biroz past ko'rsatkichlar (16,7-21,0 dona) kuzatilib, barcha kombinatsiyalarda salbiy o'ta dominantlik holatida irsiylanish aniqlandi. F_2 o'simliklarida bitta o'simlikdagi umumiy dukkaklar soni bo'yicha ijobiy transgressiya holati aniqlandi. Tahlil qilingan F_2 o'simliklarida bitta o'simlikdagi umumiy dukkaklar soni bo'yicha o'zgaruvchanlik ko'lamini 5-6-7 sinfni qamrab oldi. F_2 Solnishko x Beybi Lima kombinatsiyasida o'ng tomonli ijobiy transgressiv o'zgaruvchanlik mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'rganilgan F_2 o'simliklarning eng ko'p foizi 26,0-30,0 dona ko'rsatkichli modal sinflarga (mos ravishda 30,59 %) to'g'ri keldi. Bundan tashqari, F_2 o'simliklarida keng transgressiv o'zgaruvchanlik kuzatilib,

o'rganilgan 219 ta o'simliklar orasidan bitta o'simlikdagi umumiy dukkaklar soni 36,0-40,0 dona bo'lgan 20 dona rekombinant shakllar ajratib olindi. F_2 o'simliklarda bitta o'simlikdagi umumiy dukkaklar soni belgisining nasldan naslga berilish koeffitsienti $h^2=31,0$ dan $h^2=71,0$ ga teng bo'ldi.


F_1 - F_2 o'simliklarida bitta dukkakdagi urug'lar soni belgisining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi bayon etilgan oltinchi bo'limda Solnishko va Ravot navlarida o'rtacha 4,3-4,5 dona, F_1 o'simliklarda ijobiy o'ta dominant, salbiy o'ta dominant va oraliq holatda irsiylanishi aniqlandi. Beybi Lima x Kalipso duragay kombinatsiyasida bitta dukkakdagi urug'lar soni belgi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 4,1 dona, o'zgaruvchanlik amplitudasi 3,5-4,8 dona va shunga mos ravishda variatsiya koeffitsienti 13,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu belgi bo'yicha dominantlik koeffitsienti ($hp=2,0$) o'ta dominantlik holatda irsiylanishi kuzatilgan bo'lsa, F_1 Solnishko x Ravot resiprok kombinatsiyasida ($hp=-2,0$; $hp=-4,0$) salbiy o'ta dominant va Solnishko x Kalipso krasnaya resiprok kombinatsiyalarida ($hp=0,2$; $hp=0,4$) ijobiy oraliq irsiylanish holatlari aniqlandi. O'rganilgan F_2 o'simliklarida geterozis holati saqlangan holda, bitta dukkakdagi urug'lar soni yuqori bo'lgan (6,1-7,0 dona) shakllar ajratib olindi.

Bobning yettinchi bo'limida F_1 - F_2 o'simliklarida bir tup o'simlikdagi urug' soni va vazni belgilarining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi haqidagi ma'lumotlar tahlil etilgan, ushbu belgi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Belaya fasol navida 121,0 dona aniqlangan bo'lsa, Vir navida bir tup o'simlikdagi urug' soni ko'rsatkichi past o'rtacha 67,4 donani tashkil etdi. F_1 o'simliklarda bir tup o'simlikdagi urug' soni belgisi bo'yicha bir-biriga yaqin natijalar olindi, duragay kombinatsiyalarda ijobiy o'ta dominant, salbiy o'ta dominant va salbiy oraliq holatda irsiylanish kuzatildi. F_2 o'simliklarida bir tup o'simlikdagi urug' soni belgisi bo'yicha o'zgaruvchanlik ko'lami 6-7 sinfni tashkil etdi. Masalan, F_2 Solnishko x Beybi Lima kombinatsiyasida ijobiy transgressiv o'zgaruvchanlik mavjud ekanligi qayd etildi. Ushbu duragay kombinatsiyada o'simliklarning eng ko'p foizi bir tup o'simlikdagi urug' soni belgisi 101,0-110,0 dona ko'rsatkichli modal sinflarga (shunga mos ravishda 25,0 %) to'g'ri keldi. F_2 o'simliklarda bir tup o'simlikdagi urug' soni belgisining nasldan naslga berilish koeffitsienti $h^2=80,0$ dan $h^2=88,0$ ga teng bo'ldi, bu esa tahlil qilingan belgining 80,0-88,0% i duragay shaklning genotipi, 12,0-20,0 % i esa tashqi muhit ta'sirida irsiylanishini ko'rsatdi.

Bobning sakkizinchi bo'limida F_1 - F_2 o'simliklarida 1000 dona urug' vazni belgisining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi tahlil etilgan. Vir navining urug'i eng yirik o'rtacha 757,6 gramm, Belaya fasol navi tanlangan boshlang'ich manbalar ichida mayda urug' o'rtacha 203,5 gramm bo'lishi aniqlandi.

F_1 Solnishko x Beybi Lima kombinatsiyasida mayda urug' (o'rtacha 283,7 gramm) duragay olingan bo'lsa, salbiy geterozis ($hp=-1,0$) holatda irsiylanish va F_1 Ravot x Solnishko kombinatsiyasida o'rtacha 662,2 g. ni tashkil etib, ijobiy o'ta dominant ($hp=2,5$) irsiylanish kuzatildi. F_2 kombinatsiyalarida belgi bo'yicha o'zgaruvchanlik ko'lami 3-6-7-8-9-10 sinfni qamrab oldi. Masalan: F_1 Ravot x Solnishko kombinatsiyasida 1000 dona urug' vazni belgisi o'rtacha ko'rsatkichi 662,6 gramm, F_2 o'simliklarida esa bu ko'rsatkich biroz past ko'rsatkichni 466,0 gramm, variatsiya koeffitsienti esa 6,9% ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu kombinatsiyada 1000 dona urug‘ vazni belgisining nasldan naslga berilish koeffitsienti $h^2=98,8\%$ ga teng bo‘ldi, bu esa tahlil qilingan belgining $98,8\%$ i duragay shaklning genotipi, $1,2\%$ i esa tashqi muhit ta‘sirida irsiylanishini ko‘rsatdi (4-rasm).



